

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.15/31.08.2022.T.73.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

MAMATMUMINOV ALISHER TURAQULOVICH

**YUQORI HARORATLI SHAROITDA POLIMER-OLTINGUGURTLI
ASFALTBETON QOPLAMASINING EKSPLOATATSION
KO'RSATKICHLARINI OSHIRISH**

**05.09.02 — “Geotexnika” (Yo'llar, yo'llarni raqamlashtirish va yo'l harakati
xavfsizligi. Yo'l telematikasi yo'nalishlari bo'yicha)**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Mamatmuminov Alisher Turaqulovich

Yuqori haroratli sharoitda polimer-oltingurtli asfaltbeton
qoplamasining ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini oshirish3

Маматмунинов Алишер Турақулович

Повышение эксплуатационных показателей полимерно-
сероасфальтобетонного покрытия в условиях высокотемпературной
среды.....23

Mamatmuminov Alisher Turaqulovich

Increasing the operational indicators of polymer-sulfur asphalt concrete
pavement under high-temperature conditions43

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works.....47

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.15/31.08.2022.T.73.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

MAMATMUMINOV ALISHER TURAQULOVICH

**YUQORI HARORATLI SHAROITDA POLIMER-OLTINGUGURTLI
ASFALTBETON QOPLAMASINING EKSPLOATATSION
KO'RSATKICHLARINI OSHIRISH**

**05.09.02 — “Geotexnika” (Yo'llar, yo'llarni raqamlashtirish va yo'l harakati
xavfsizligi. Yo'l telematikasi yo'nalishlari bo'yicha)**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/T5760 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tstu.uz) va "Ziyonet" axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sadikov Ibragim Salixovich
Texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Karimov Maqsud Ubaydulla o'g'li
texnika fanlari doktori, professor

Axmedov Sherzod Baxadirovich
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.15/31.08.2022.T.73.05 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil "___" ___ soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100167, Toshkent, Temiryo'lichilar ko'chasi 1-uy. Tel./faks: (998-71) 277-54-87, e-mail: tashiit_rektorat@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100167, Toshkent, Temiryo'lichilar ko'chasi 1-uy. Tel./faks: (998-71) 277-54-87, e-mail: tashiit_rektorat@mail.ru).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "___" _____ kuni tarqatilgan.
(2025 yil "___" ___ dagi ___-raqamli reyestr bayonnomasi).

A.X. Urokov,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, t.f.d., professor

R.M.Xudaykulov,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, PhD, professor

K.X. Azizov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi o'rinbosari (raisi), t.f.n, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda yo‘l infratuzilmasi iqtisodiy rivojlanish va davlat xavfsizligini ta‘minlashning eng muhim elementlaridan biridir. Dunyoning barcha mamlakatlarida yo‘l tarmog‘ining holati va yo‘l qoplamasining sifatiga katta e‘tibor beriladi. Mamlakatimizda va jahonda avtomobil yo‘llariga bo‘lgan talab kundan-kunga oshib bormoqda. Butun dunyo bo‘yicha global iqlimiy muammolar oqibatida asfaltbeton qoplamalaridagi harorat 65-75 °C gacha ko‘tarilishi natijasida qoplamalardagi plastik deformatsiyalar hosil bo‘lmoqda. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda avtomobil transportiga bo‘lgan talab ortib borayotganligi sababli, yuqori harakat oqimi natijasida qoplamalardagi buzilishlar yuzaga kelmoqda. Yuqorida keltirilgan muammolarni bartaraf etish uchun avtomobil yo‘llariga yuqori haroratga chidamli yangi asfaltbeton texnologiyalarini qo‘llash tavsiya etiladi. “Yuqori haroratli ekspluatatsiya sharoitida yo‘llarni qurish va ta‘mirlash uchun oltingugurtli asfaltbeton qorishmalarini ishlab chiqish texnologiyasini joriy etish yuqori samara beradi”¹. Asfaltbeton qoplamasining yuqori haroratga chidamliligini oshirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Jahonda avtomobil yo‘llarining xizmat muddatini uzaytirish va ayniqsa asfaltbeton qoplamalarining ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini yaxshilash maqsadida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada asfaltbeton qorishmalarining tarkibini takomillashtirish uchun energiya tejamkor qurilish materiallari, hamda yuqori iqtisodiy samaradorlikga ega bo‘lgan modifikatsiyalangan polimer-oltingugurtli bitumdan foydalanish yo‘nalishlari keng rivojlanmoqda. Xususan, yuqori haroratli ekspluatatsion sharoitda asfaltbeton qoplamalarining barqarorligini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan tejamkor qurilish materiallari – modifikatsiyalangan polimer-oltingugurtli bitumni qo‘llash bo‘yicha tadqiqotlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda avtomobil yo‘llarining xizmat muddatini uzaytirish, ularning sifati va iste‘mol xususiyatlarini yaxshilash, shuningdek, ta‘mirlash jarayonlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.10.2023-yildagi PQ-330 son “Yo‘l xo‘jaligi sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”² gi qarorida hamda 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan “Yo‘l infratuzilmasini takomillashtirish va avtomobil yo‘llari tarmog‘ini jadal rivojlantirish” bo‘yicha vazifalar belgilangan. Mazkur maqsadlarga erishish uchun asfaltbeton qoplamalarning yuqori haroratlarda bardoshlilikini oshirish va ekspluatatsion xossalarini yaxshilash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, Prezidentning PF-60, PF-5890, PQ-4545 va PQ-330-son hujjatlarida yo‘l xo‘jaligini modernizatsiya

¹https://spravochnick.ru/arhitektura_i_stroitelstvo/vnedrenie_tehnologii_seroasfaltobetona_dlya_remonta_dorog_v_vysokotemperaturnyh_usloviyah_ekspluatatsii/

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.10.2023-yildagi PQ-330 son “Yo‘l xo‘jaligi sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori

qilish, boshqaruv tizimini takomillashtirish va zamonaviy materiallardan foydalanish vazifalari belgilab berilgan bo‘lib, ushbu dissertatsiya tadqiqoti ana shu maqsadlarga muayyan ilmiy-amaliy hissa qo‘shadi.

Tadqiqotning Respublika, fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo‘yicha tadqiqotlar Respublika, fan va texnologiyalari rivojlanishining II “Energetika, energiya va resurs-tejamkorlik, transport va asbobsozlik” ustuvor yo‘nalishiga mos keladi. Dissertatsiya ishi IL-4821091606 “Ekstremal transport yuklamalar va haroratni qabul qiluvchi asfaltbetonlarning reologik xossalarini “Superpave” tizimida yo‘naltirib tartibga solish” nomli fundamental xalqaro grant loyihasi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Modifikatsiyalangan oltingugurtli bitum olish, oltingugurtli asfaltbeton qorishmasini tayyorlash, oltingugurtli asfaltbeton qoplamalarini yotqizish texnologiyalari bo‘yicha dunyo olimlaridan S.Y. Andronov, G.V. Vasilovskaya, D.R. Nazirov, V.D. Galdina, J.M. Antens, M.V. Jeleznov, R.G. Telyashev, N.V. Motin, R.F. Sabirov, A.N. Shubin, M.N. Alyoxina, L.X. Tuan, G.O. Gorbik, D.A. Skripunov, Y.E. Vasilyev, P.V. Saxarov, V.B. Ivanov, A.Y. Tixonov, B.A. Kozlovskiy, G.K. Syuni, A.M. Boguslavskiy, V.A. Gladkix, M.J. Reynhout, K.M. Beketov, V.A. Tanayans, O.I. Doshlov, V.V. Pronin, S.A. Korolev, G.L. Baumgarder, H. Ahmad va boshqalar tomonidan bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida ma’lum bir natijalarga erishilgan, respublikamiz olimlaridan oltingugurtli bitum va oltingugurtli asfaltbeton mavzusida I.S. Sadikov, E.S. Sottiqulov, E.U. Kasimov, B.Xursandov va S.M. Tilakovlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Yuqoridagi tahlillar natijasidan kelib chiqadiki oltingugurtli asfaltbetonning yuqori haroratga chidamliligini oshirish borasida yetarli ilmiy ishlar olib borilmagan. O‘zbekistonda esa oltingugurtli asfaltbetonning yuqori haroratga chidamliligini oshirish borasida yetarlicha ilmiy izlanishlar olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat transport universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Transport yuklamalari va iqlim sharoitini hisobga olgan holda yo‘l qoplamasining belgilangan transport-ekspluatatsion xususiyatlariga ega yo‘l to‘shmalarining konstruksiyasini tuzishda tizimli yondashish” nomli ilmiy tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi avtomobil yo‘llaridagi asfaltbeton qoplamalarining yuqori haroratga chidamliligini oshirish uchun polimer-oltingugurtli asfaltbeton qoplamasining ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini oshirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- yuqori haroratga chidamli polimer-oltingugurtli asfaltbeton tayyorlash texnologiyalarini tahlil qilish;
- oltingugurtli modifikatsiya qilish texnologiyasini ishlab chiqish;
- modifikatsiyalangan polimer-oltingugurtli bitum olish texnologiyasini ishlab chiqish hamda bog‘lovchining fizik-mexanik ko‘rsatkichlarini oshirish;
- yuqori haroratga chidamli polimer-oltingugurtli asfaltbetonning yangi tarkibini ishlab chiqish va ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini oshirish;

- yuqori haroratga chidamli polimer-oltingugurtli asfaltbetonning iqtisodiy samaradorligini baholash.

Tadqiqotning ob'yekti - polimer-oltingugurtli asfaltbeton qorishmasi va polimer-oltingugurtli asfaltbeton.

Tadqiqotning predmeti - modifikatsiyalangan polimer-oltingugurtli bitum olish texnologiyasi va yuqori haroratga chidamli polimer-oltingugurtli asfaltbeton tayyorlash texnologiyasi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida modifikatsiyalangan polimer-oltingugurtli bitumning reologik xossalari va kimyoviy strukturasi aniqlashda, IQ-spektroskopiya, laboratoriya sinovlari, eksperimental tadqiqot, matematik statistika va regression tahlil usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- mahalliy homashyo hisoblangan oltingugurtli TP markali modifikator bilan modifikatsiya qilinishi natijasida modifikatsiyalangan polimer-oltingugurtli bitum olish texnologiyasi takomillashtirilgan;

- avtomobil yo'llaridagi qoplamalarni qurish va ta'mirlash uchun ilk bor yuqori haroratga chidamli va mustahkamligi yuqori bo'lgan yangi qurilish materiali – polimer-oltingugurtli asfaltbeton olingan;

- polimer-oltingugurtli asfaltbeton qoplamalarining g'ildirak izi hosil bo'lishga chidamliligi, suvga bardoshliligi, surilishdagi mustahkamligi, yuqori haroratga chidamliligi kabi ekspluatatsion ko'rsatkichlari oshirishga erishilgan;

- asosiy tarkib va texnologik omillarni (polimer-oltingugurt tarkibi, tayyorlash harorati, modifikator turi, miqdori va tayyorlash texnologiyasi) polimer-oltingugurtli asfaltbetonning fizik - mexanik va ekspluatatsion ko'rsatkichlari o'zgarish qonuniyatlari asosida aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

- polimer-oltingugurtli asfaltbeton qorishmasini ishlab chiqarish bo'yicha texnologik reglament ishlab chiqilgan;

- ilmiy izlanishlar natijasini IQN 82-2024 "Qish mavsumida umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini ta'mirlash bo'yicha yo'riqnoma" idoraviy qurilish normalarini qayta ishlab chiqishda "Bog'lovchi materiallar", "Oltingugurtli asfaltbeton", "Avtomobil yo'llari asfaltbeton qoplamalaridagi chuqurlarni ta'mirlash usullari" bo'limlarida foydalanilgan;

- polimer-oltingugurtli asfaltbeton qorishmasining I markali A tipi uchun fizik-mexanik va ekspluatatsion ko'rsatkichlari oshirilgan optimal donadorlik tarkibi ishlab chiqilgan;

- asfaltbeton qoplamalarining fizik-mexanik va ekspluatatsion ko'rsatkichlarini oshirishda polimer-oltingugurtli asfaltbetonning takomillashgan usulidan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi baholangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy izlanishlar standartlashtirilgan uslublar asosida, zamonaviy va yuqori aniqlikdagi raqamli vositalardan foydalanilgan holda amalga oshirilganligi bilan belgilanadi. Shuningdek, asfaltbeton qoplamalarining ekspluatatsion ko'rsatkichlarini oshirish maqsadida ularning xossalari zamonaviy laboratoriya jihozlarida sinovdan o'tkazilib tahlil qilinganligi natijalarni mustahkamlaydi. Bundan tashqari, nazariy va amaliy

tadqiqotlar natijalarining o‘zaro uyg‘unligi, shuningdek tarkibni ishlab chiqishda korrelyatsiya va regressiya koeffitsiyentlaridan foydalanish orqali olingan natijalarning mavjud modellarga mos kelishi tadqiqotning ishonchligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati asfaltbeton qoplamalarining yuqori harorat ta’sirida ekspluatatsion xossalarning kamayishi sabablari tahlillar natijasida aniqlandi va oltingugurtli polimerlash asosida asfaltbeton bog‘lovchisining xususiyatlarini yaxshilash, gazni qayta ishlash zavodlarining chiqindisi bo‘lgan oltingugurtli qayta ishlash orqali ekologiya va atrof muhitga zararli ta’sirni kamaytirish, polimer-oltingugurtli asfaltbeton qoplamasining ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini oshirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, ishlab chiqilgan tarkib asosida tayyorlangan polimer-oltingugurtli asfaltbeton qorishmasini avtomobil yo‘llarida, avtomobil yo‘llarining asfaltbeton qoplamalarini qurish va ta’mirlash ishlarida qoplamaning yuqori qatlamini yotqizishda, avtomobil yo‘llari asfaltbeton qoplamalaridagi o‘yiq-larni ta’mirlash orqali qoplamaning yuqori haroratga chidamliligini oshirishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Polimer-oltingugurtli asfaltbeton qoplamasining ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini oshirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

- polimer-oltingugurtning polimerlanish miqdori 54 % ga oshirildi va polimer-oltingugurtli asfaltbeton uchun ishlab chiqilgan optimal tarkib asosida asfaltbeton zavodlarida qorishma tayyorlandi va Avtomobil yo‘llari qo‘mitasiga qarashli Boysun tuman yo‘llardan foydalanish davlat muassasasiga joriy etildi (O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasining 2025-yil 7-oktabrdagi №02-4424 sonli ma’lumotnomasi). Natijada, polimer-oltingugurtli asfaltbeton qoplamasining ekspluatatsion ko‘rsatkichlari 2-3 marta oshirilishi laboratoriya sinovlari orqali aniqlangan;

- polimer-oltingugurtli asfaltbeton avtomobil yo‘llarining qoplamalarini qurish va ta’mirlash uchun mustahkamlik, yoriqbardoshlilik, yuqori haroratga chidamlilik, siljishga chidamlilik va g‘ildirak izi deformatsiyasiga chidamliligi kabi fizik-mexanik va ekspluatatsion ko‘rsatkichlari oshirildi va natijalar Avtomobil yo‘llari qo‘mitasiga qarashli Boysun tuman yo‘llardan foydalanish davlat muassasasiga joriy etildi (O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasining 2025-yil 7-oktabrdagi №02-4424 sonli ma’lumotnomasi). Natijada, polimer-oltingugurtli asfaltbetonning qo‘llanilishi qoplamaning yuqori haroratda, ya’ni 70 °C da siqilishga mustahkamligi bugungi kunda qo‘llanilayotgan an’anaviy asfaltbetonga nisbatan 2-3 marta ortishiga olib kelgan;

- polimer-oltingugurtli asfaltbetonning I markali A tipi uchun ishlab chiqilgan optimal donadorlik tarkibi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasiga qarashli Boysun tuman yo‘llardan foydalanish davlat muassasasiga joriy etildi (O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasining 2025-yil 7-oktabrdagi №02-4424 sonli ma’lumotnomasi). Natijada, yuqori haroratli

ekspluatatsion sharoitda qoplamaning mustahkamlik ko'rsatkichlari 20 °C haroratda 6,8 MPa gacha ortishiga olib kelgan;

- polimer-oltingugurtli asfaltbetonning takomillashgan usuli Avtomobil yo'llari qo'mitasiga qarashli Boysun tuman yo'llardan foydalanish davlat muassasasiga joriy etildi (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasining 2025-yil 7-oktabrdagi №02-4424 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, yuqori haroratli ekspluatatsion sharoitda qoplamaning mustahkamlik ko'rsatkichlari oshirilgan, bundan tashqari ushbu uslubni qo'llash natijasida bitum miqdorini 40 % gacha iqtisodiy samaradorlikga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida, 2 ta mahalliy va 7 ta xalqaro (jumladan 1 ta "Scopus" bazasiga kirgan konferensiyada) konferensiyalarda ma'ruzalar qilingan va muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligini. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 25 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, ulardan 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda e'lon qilingan, 1 ta EHM dasturiga guvohnoma olingan. Shuningdek, ixtiroga mualliflik huquqini olish uchun Intellektual mulk agentligiga talabnoma yuborilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 116 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va uni olib borish zarurati asoslab berilgan bo'lib, unda muammoning o'rganilganlik darajasi hamda respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti hamda predmeti aniqlab berilgan. Ishda qo'llanilgan tadqiqot usullari, olingan natijalarning ilmiy yangiligi, ularning ilmiy va amaliy ahamiyati, shuningdek, natijalarni amaliyotga joriy etish holati bayon etilgan. Dissertatsiya tadqiqoti bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan uzviy bog'liqligi ko'rsatilgan, olingan natijalarning aprobatsiyasi, e'lon qilingan ilmiy ishlari hamda dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Oltingugurtli asfaltbeton qoplamalari va ulardan foydalanish bo'yicha mavjud muammolar tahlili**" nomli birinchi bobida mamlakatimiz avtomobil yo'llarining asfaltbeton qoplamalarida ekspluatatsiya jarayonida kuzatilayotgan muammolar hamda ularni yuzaga keltiruvchi asosiy omillar tahlil qilingan. Ushbu bobda yo'l qoplamalarining fizik-mexanik xossalariga, iqlimiy sharoitlar ta'siriga, ishlatilayotgan bog'lovchi va to'ldiruvchi materiallar sifati hamda texnologik jarayonlarning kamchiliklariga oid ma'lumotlar keltirilib, mavjud muammolarning ilmiy asoslangan tahlili bayon etilgan.

Hozirgi kunda oltingugurt va bitum o'zaro ta'sir mexanizmlari to'liq


aniqlanmagan bo‘lib, mavjud ma’lumotlar bir-biriga zid hisoblanadi. Oltिंगugurtning bitum bilan kimyoviy va fizik-kimyoviy bog‘lanish jarayonlarini o‘rganish hamda uning kristallanishi asfaltbetonning mustahkamligi va suvga chidamliligiga ta’sirini aniqlash muhim vazifadir. Tadqiqotlar modifikatsiyalangan oltिंगugurtli asfaltbetonning fizik-mexanik xossalarini yaxshilab, bitum sarfini va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi. O‘zbekistonning issiq iqlimida bunday qoplamalar deformatsiyaga chidamli bo‘lib, 70 °C dagi sinov talablariga to‘liq javob beradi.

Dissertatsiyaning **“Yuqori haroratli ekspluatatsion sharoitlar uchun modifikatsiyalangan polimer-oltिंगugurtli bitum va uning xossalarini tadqiq qilish”** deb nomlangan ikkinchi bobida polimer-oltिंगugurtli bitum olish usullari va ularning fizik-kimyoviy xossalari tadqiq qilingan. Modifikatsiyalangan va modifikatsiyalanmagan polimer-oltिंगugurt va u asosidagi asfaltbeton qorishmasini tayyorlash maqsadida qo‘llaniladigan materiallarning fizik-mexanik xossalari aniqlanib me’yoriy hujjatlar talabi bilan taqqoslanganligi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Bunda zich yopiladigan qopqoqli, mexanik aralashtirgich, termometr va isitish tizimiga ega reaktor qo‘llanildi. Reaktorga 5 kg oltिंगugurt solinib, harorat bosqichma-bosqich oshirildi: 140 °C da oltिंगugurt plastik holatga o‘tib, 165 °C da modifikator (TP) va initsiator kiritildi. TP (to‘yinmagan poliolfin) — tarkibida amin va zanjir uzuvchi guruhlar mavjud quyi molekulyar polietilen bo‘lib, 1–5 % miqdorda, initsiator esa 0,003 % miqdorda qo‘shildi. Reaksiya 45 daqiqa davom etib, doimiy aralashtirish orqali barqaror qovushqoqlikka ega massa hosil qilindi.

Tajriba natijasida qizg‘ish-qo‘ng‘ir tusli, yuqori qovushqoqlikka ega polimer-oltिंगugurt olindi. Uning barqarorligini ta’minlash uchun sovutish jarayoni xona haroratidagi suvda tezkor tarzda amalga oshirildi.

Quyidagi rasmda Samarqand TMZ (tosh maydalash zavodi) dagi granit tosh materiallaridan I markali A tipdagi polimer-oltिंगugurtli asfaltbeton uchun donadorlik tarkibi grafigi keltirilgan.



1-rasm. Samarqand TMZ dagi granit tosh materiallaridan I markali A tipdagi polimer-oltिंगugurtli asfaltbeton uchun donadorlik tarkibi grafigi


Grafik tahliliga ko‘ra, polimer-oltिंगugurtli asfaltbeton qorishmasining haqiqiy donadorlik tarkibi GOST 9128-2013 standartidagi yuqori va quyi

chegaralar oraliq'ida joylashgan bo'lib, optimal granulometrik barqarorlikni ta'minlaydi. Granit tosh, qum va faollashtirilgan slanesli mineral kukunlardan hamda polimer-oltingugurtli bitumdan tayyorlangan qorishma uchun bog'lovchi miqdori quyi chegaradan 0,2 % ortiqdan yuqori chegaragacha o'zgaruvchi 7 xil tarkibda sinovdan o'tkazildi. Natijalar bitum miqdori 4,8 % bo'lgan tarkibning eng maqbul variant ekanini ko'rsatdi, chunki u bir xil taqsimot, minimal g'ovaklik va yuqori zichlikni ta'minladi. Shu bilan birga, bu tarkib yuqori haroratda deformatsiyaga chidamli bo'lib, yotqizish qulayligi bilan ham ajralib turadi. Hisoblash natijalariga muvofiq, 40 % oltingugurt va 1–2 % to'yinmagan poliolfirin modifikatori qo'shilgan bog'lovchi eng maqbul deb topildi.

Dissertatsiyaning **“Yuqori haroratli sharoitda polimer-oltingugurtli asfaltbeton qoplamasining ekspluatatsion ko'rsatkichlarini oshirish”** deb nomlangan uchinchi bobida polimer-oltingugurtli bitumning optimal tarkibini ishlab chiqarish bo'yicha eksperimentlar bajarilib modifikatsiyalangan polimer-oltingugurtning polimerlanish miqdori 54 % ga yetkazilishi natijasida bog'lovchining fizik-mexanik xossalari oshirilgan.


Oltingugurtni modifikatsiya qilib polimer-oltingugurtli bitum olish jarayonida reaktordagi optimal harorat 175 °C, baraban aylanish tezligi esa 200 ayl/min etib belgilandi. Tarkibida 40 % modifikatsiyalangan bitum bo'lganda materialning fizik-mexanik xossalari eng yuqori natijani ko'rsatdi. Tajribalar asfaltbeton tarkibidagi bog'lovchi miqdorining 4,6–4,8 % diapazoni optimal ekanini aniqlab, bu oraliqda mustahkamlik, suvga bardoshlilik va zichlik ko'rsatkichlari maksimal bo'lishi qayd etildi. Polimer-oltingugurtli bog'lovchi suv shimuvchanlikni kamaytirib, eroziya va yorilishlarning oldini oladi.

Bog'lovchini tayyorlashda “Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi” ishlab chiqargan BND 60/90 markali bitum hamda “Muborak gazni qayta ishlash zavodi” chiqindisi bo'lgan oltingugurt ishlatildi. Optimal modifikator sifatida TP (to'yinmagan poliolfirin) tanlanib, oltingugurt 170 °C da qizdirildi, unga massaning 1 % miqdorida TP qo'shib 40 daqiqada aralashtirildi. Shu bilan birga, BND 60/90 bitumi 160 °C da suvsizlantirildi va keyin modifikatsiyalangan oltingugurt bilan 100 daqiqada 200 ayl/min tezlikda aralashtirildi. Umumiy 17 ta sinov o'tkazilib, oltingugurt miqdori, harorat, modifikator foizi va vaqt ta'siri o'rganildi. GOST standartlariga muvofiq sinov natijalari TP modifikatori qo'shilgan polimer-oltingugurtli bitum yuqori mustahkamlik, yaxshilangan qovushqoqlik va issiqqa bardoshlilikka ega ekanini ko'rsatdi, ya'ni bitumning deformatsiyaga qarshiligi sezilarli darajada oshgan.




2-rasm. Polimer-oltingugurtli bitum va 60/90 markali qovushqoq bitumning ignaning botish chuqurligi xossasi bo'yicha taqqoslash grafigi

Polimer-oltingugurtli bitumga ignaning botish chuqurligini aniqlashda to'yinmagan poliolfin modifikatoridan foydalanildi, olingan natija 46° ni ya'ni 4,6 mm ga igna botishi aniqlandi. Bundan tashqari ushbu modifikator bilan oltingugurtni modifikatsiya qilinganda oltingugurtning polimerlanish darajasi 54 % ni tashkil etdi va polimer-oltingugurtga aylangani aniqlandi.



3-rasm. Polimer-oltingugurtli bitum va BND 60/90 markali qovushqoq bitumning yumshash harorati xossasi bo'yicha taqqoslash grafigi

Ushbu grafikda BND 60/90 markali qovushqoq bitum va polimer-oltingugurtli bitumning taqqoslash grafigi keltirib o'tilgan. 3.1-jadvaldan olingan natijalarga asoslanib bitumga nisbatan oltingugurt miqdorini 20 % qo'shganda yumshash harorati 55°C ga, 40 % oltingugurt qo'shganda yumshash harorati 70°C ga yetgani aniqlandi.



4-rasm. Polimer-oltingugurtli bitum va BND 60/90 markali qovushqoq bitumning cho'ziluvchanlik xossasi bo'yicha taqqoslash grafigi

Bitumning mo'rtlik haroratini aniqlash GOST 11507-78 standarti bo'yicha Fraasa usuli yordamida amalga oshiriladi. Mo'rtlik harorati — bu bitumning sovuq muhitda elastikligini yo'qotib, yorilish yuz beradigan eng past haroratdir. Sinov uchun bitum 160 °C dan oshmagan haroratda doimiy aralashtirish orqali suvsizlantiriladi, so'ng 0,7 mm li elakdan o'tkazilib, havo pufakchalari chiqariladi. Tayyorlangan bitum $0,40 \pm 0,01$ g miqdorda po'lat plastinkaning qavariq tomoniga surtib, 5–10 daqiqada bir tekis tarqalishi ta'minlanadi. Plastinkalar quritilgach, GD-0613A (Automatic Asphalt Breaking Point Tester) asbobiga joylashtiriladi va mo'rtlik harorati aniqlanadi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, oddiy neft bitumlarida mo'rtlik harorati odatda – 6 °C dan –15 °C gacha bo'lsa, polimer-oltingugurtli bitumlarda bu ko'rsatkich –20 °C gacha pasayadi. Bu esa modifikatsiyalangan bog'lovchining sovuqqa bardoshlilik darajasi yuqori ekanini ko'rsatadi.

Oddiy BND markali qovushqoq bitum va polimer-oltingugurtli bitumlarning mo'rtlik haroratlari oltingugurt va bitumning turli foizlarda qo'shilishi orqali aniqlandi (1-jadval).

1-jadval

Bitum turlarining mo'rtlik harorati bo'yicha taqqoslanishi

No	Bitum turlari	Mo'rtlik harorati, °C (haqiqiy qiymat)
1.	BND 60/90	-11
2.	Polimer-oltingugurtli bitum (10:90)	-14,2
3.	Polimer-oltingugurtli bitum (20:80)	-18,9
4.	Polimer-oltingugurtli bitum (30:70)	-20,3
5.	Polimer-oltingugurtli bitum (40:60)	-21,5

Bitumlarning mo'rtlik harorati sovuq iqlim sharoitida ularning elastikligini saqlab qolish qobiliyatini belgilaydi. Eksperimental sinovlar natijasiga ko'ra, BND 60/90 markali bitumning mo'rtlik harorati –11 °C bo'lib, bu uning past haroratlarda ishlatilish imkoniyatini cheklaydi hamda qish mavsumida yorilish xavfini oshiradi. Polimer-oltingugurtli bitum esa sovuqda elastikligini saqlab, mo'rtlik harorati sezilarli darajada pasaygani aniqlangan. Eng yaxshi natija 40:60 nisbatdagi polimer-oltingugurtli bitumda qayd etilib, uning mo'rtlik harorati –21,5 °C ni tashkil etdi.

Bu natijalar polimer-oltingugurtli bitumlarning oddiy bitumlarga nisbatan sovuqqa bardoshliliigi ancha yuqori ekanini ko'rsatadi. Bunday effekt oltingugurtning bitum molekulari bilan hosil qiladigan kimyoviy bog'lari va ularning natijasida yuzaga keladigan strukturaviy tarmoq bilan izohlanadi. Ushbu tarmoq materialning mexanik hamda termik barqarorligini oshiradi.

Polimer-oltingugurtli bitumni (POB) RTFOT qurilmasida eskirtirilganda bitumni ishlab chiqarish jarayonidagi issiqlikga ajralishi va qisqa muddatli eskirishi bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni beradi.

Bitumlarning eskirishga chidamliligini baholash uchun yumshash harorati, cho'ziluvchanlik, ignaning botish chuqurligi va massa o'zgarishi kabi ko'rsatkichlar asosida solishtirma tahlillar o'tkazildi. GOST 33133-2014 va GOST 22245-90 standartlariga asoslangan tadqiqotlar oddiy qovushqoq bitumlar bilan polimer-oltingugurtli bitumlarning fizik-mexanik xossaligidagi o'zgarishlarni


aniqlash imkonini berdi. Natijalarga ko‘ra, barcha bitumlarda eskirishdan keyin yumshash harorati ortgan bo‘lsada, bu o‘shish polimer-oltingugurtli bitumlarda ancha katta bo‘lgan — masalan, 40:60 nisbatdagi namunada 6,1 °C ga oshgan. Bu oltingugurtning tarmoqlanuvchi strukturasi bitumning termik barqarorligini kuchaytirganini ko‘rsatadi.

2-jadval


Bitumning qisqa muddatli eskirishidagi sinov natijalari

№	Bitum turlari	Bitumning yumshash harorati, °C		Bitumning cho‘ziluvchanligi, sm			Bitumning massa o‘zgarishi, g
		GOST 33133-2014 va GOST 22245-90 bo‘yicha					
		47 °C dan kam emas	Ko‘p emas 7 °C	62 sm dan kam emas	-	PB 40	Ko‘p emas 0,6 % dan
		dastlabki	eskirgani	dastlabki	eskirgani	Polimer bitum talabi	Eskirgandagi massa o‘zgarishi
1	BND 60/90	46.5	52,4	70+	32	15	0,12 g (0,34 %)
2	BND 70/100	47	49,2	70+	29	15	0,13 g (0,34 %)
3	POB (20:80)	54	58,2	42	24	15	0,16 g (0,41 %)
4	POB (30:70)	63	68,2	35	19	15	0,18 g (0,46 %)
5	POB (40:60)	70	76,1	32	17	15	0,23 g (0,59 %)

Oddiy bitumlarda cho‘ziluvchanlik keskin kamayib, 70 sm dan 29–32 sm gacha tushgan bo‘lsa, polimer-oltingugurtli bitumlarda bu ko‘rsatkich 32 sm dan 17 sm gacha kamaygan, ya’ni elastiklik qisman saqlanib qolgan. Massa yo‘qotilishi 40:60 nisbatdagi namunada 0,59 % bo‘lib, bu uchuvchi mahsulotlarning chiqishi bilan izohlanadi, ammo termik bardoshlilik yuqori darajada saqlangan. Penetrometr ko‘rsatkichi 62,7 dan 53,6 gacha (–14,5 %) pasaygan bo‘lsa-da, bu qiymatlar ekspluatatsion me’yorlarda qolgan.




5-rasm. Polimer-oltingugurtli asfaltbeton qorishmasidan yasalgan namunalarning o‘rtacha zichligi



6-rasm. Polimer-oltingugurtli asfaltbeton qorishmasidan yasalgan namunalarning suv shimuvchanligi

Umuman olganda, polimer-oltingugurtli bitum eskirish jarayonida fizik-mexanik xossalarini muayyan darajada saqlab qoladi: yumshash harorati ortadi, cho‘ziluvchanlikning pasayishi nazorat ostida bo‘ladi, qattqlik esa me‘yoriy diapazondan chiqmaydi. Bu modifikatsiyalangan bog‘lovchi strukturaviy tarmog‘ining mexanik va termik barqarorligini tasdiqlaydi. Polimer-oltingugurtli asfaltbeton qorishmasidan yasalgan namunalarning suv shimuvchaligi GOST 12801-98 ning 13-bandi bo‘yicha aniqlanadi.

Polimer-oltingugurtli asfaltbeton namunalarning 0 °C, 20 °C, 50 °C va 70 °C haroratlardagi siqilishga mustahkamligi GOST 12801-98 ning 15-bandi bo‘yicha aniqlanadi.




7-rasm. Polimer-oltingugurtli asfaltbetonning siqilishga mustahkamlik ko‘rsatkichlari

Polimer-oltingugurtli asfaltbeton qorishmasidan yasalgan namunalarning siqilishga mustahkamliklari oltingugurtli-bitumning qorishmadagi foizlariga nisbatan 0 °C, 20 °C, 50 °C va 70 °C haroratlarda aniqlandi.

Polimer-oltingugurtli asfaltbetonning siqilishga mustahkamlik ko‘rsatkichlari harorati va bog‘lovchi miqdoriga sezilarli darajada bog‘liq. 0 °C haroratdagi mustahkamlikning eng yuqori qiymati 4,8 % bog‘lovchi miqdorida kuzatilib 13 MPa ni tashkil etdi. Bu esa past haroratlarda materialning mustahkamligi ortishini ko‘rsatadi. 20 °C haroratda optimal bog‘lovchi miqdori 4,8 % bo‘lib, me‘yoriy hujjat talabidan ancha yuqori qiymatni ko‘rsatdi. 50 °C va 70 °C dagi yuqori haroratlarda natijalar materialning issiqlikga chidamliligini yoritib beradi.

Umumiy qilib aytganda, 7-rasm natijalari polimer-oltingugurtli asfaltbeton 4,6-4,8 % bog‘lovchi miqdori optimal ekanligini ko‘rsatadi. Bu diapazon asfaltbetonning har xil harorat sharoitlarida barqarorligini ta‘minlab, uning ekspluatatsion chidamliligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Polimer-oltingugurtli asfaltbetonning suvga bardoshliligi GOST 12801-98 ning 19-bandiga asosan aniqlanadi.



8-rasm. Polimer-oltingugurtli asfaltbetonning suvga bardoshliligi

Ushbu rasmda polimer-oltingugurtli asfaltbetonning suvga bardoshliligi polimer-oltingugurtli bitum bog'lovchisining o'zgarishiga qarab o'zgarishi keltirilgan. Bog'lovchining optimal miqdori 4,8 % da suvga bardoshlilik eng yuqori natijani ko'rsatgan.


Polimer-oltingugurtli asfaltbetonning 0 °C haroratdagi yorilishdagi mustahkamligi GOST 12801-98 ning 16-bandiga asosan aniqlanadi.

Polimer-oltingugurtli asfaltbetonning yorilishdagi mustahkamligi O'z MST 3632-2023 bo'yicha 4,0-6,5 MPa oralig'ida bo'lishi kerak. Bog'lovchi miqdorining eng optimal miqdori 4,8 da eng yuqori 6,11 MPa natija qayd etilgan.


Polimer-oltingugurtli asfaltbeton qoplamasining g'ildirak izi deformatsiyasi oltingugurt miqdorining o'zgarishiga ko'ra aniqlandi. Unga ko'ra oltingugurt miqdorini bitumga nisbatan 30 % qo'shganda 60 °C haroratda g'ildirak izining botishi 2,61 mm ni tashkil etdi. Bu esa GOST talabi bo'yicha mos keladi.

Polimer-oltingugurtli asfaltbeton namunasining g'ildirak izi deformatsiyasi oltingugurt miqdori 40 % bo'lganda 70 °C haroratda 1,93 mm ni tashkil etdi. Ushbu natijalar polimer-oltingugurtli asfaltbeton qoplamalarining yuqori haroratga chidamli ekanligini bildiradi.

Polimer-oltingugurtli asfaltbeton namunalarining siljishdagi ilashishi ko'rsatkichini aniqlash uchun GOST 12801-98 ning 18-bandiga asosan aniqlanadi.



9-rasm. Polimer-oltingugurtli asfaltbetonning yorilishdagi mustahkamligi



10-rasm. Polimer-oltingugurtli asfaltbeton namunasining bog'lovchi miqdorlariga nisbatan siljishdagi mustahkamligi

50 °C da o'tkazilgan sinov natijalariga ko'ra, bog'lovchi miqdori ortishi asfaltbetonning deformatsiyaga qarshi turg'unligini oshiradi. Polimer-oltingugurtli bitum 4,8 % bo'lganda maksimal siljish mustahkamligi 0,51 MPa qayd etilib,

yuqori yuklamalarga bardoshlilikni ta'minladi. Shu bilan birga, bog'lovchi miqdori ortishi suv shimuvchanlikni kamaytirdi: 4,0 % da 3,65 %, 5,2 % da esa 0,41 %. Bu holat bog'lovchining bitum matritsada zich qatlam hosil qilib, suv o'tkazuvchanlikni kamaytirishi bilan bog'liq. Suvga bardoshlilik 4,2 % bog'lovchida 0,75 bo'lib, normadan past, 4,4 % dan yuqorida esa 0,91–0,99 oralig'ida bo'lib, O'zMSt 3632:2023 talablariga javob beradi. O'rtacha zichlik 2,38–2,46 g/sm³ oralig'ida o'sib, tuzilmaning mustahkamlanishini ko'rsatadi. 4,6–4,8 % bog'lovchi miqdori optimal diapazon bo'lib, bog'lovchi miqdorining ortib ketishi qoplamaning yumshab ketishiga sabab bo'ladi. Yorilishga bardoshlilik eng yuqori 4,8 % da 6,11 MPa bo'lib, sovuqda elastiklikni saqlaydi. Umuman olganda, polimer-oltingugurtli bitumning 4,6–4,8 % oralig'idagi miqdori asfaltbetonning suvga bardoshlilik, zichlik va sovuqqa chidamlilik ko'rsatkichlarini optimal darajada ta'minlab, yuqori iqlimiy barqarorlikka ega qoplamalar uchun tavsiya etiladi.

Quyida keltirilgan 3-jadvalda polimer-oltingugurtli asfaltbetonning ekspluatatsion ko'rsatkichlarining qiymatlari keltirib o'tilgan.

3-jadval

Polimer-oltingugurtli asfaltbetonning ekspluatatsion ko'rsatkichlari

№	Bog'lovchi miqdori, %	Siqilishga mustahkamligi 20 °C, MPa	Siqilishga mustahkamligi 50 °C, Mpa	Siqilishga mustahkamligi 70 °C, Mpa	Siqilishga mustahkamligi 0 °C, Mpa	50 °C haroratda siljishda ilashish, Mpa	70 °C haroratda siljishda ilashish, Mpa
1	4	6,09	3,19	1,63	9,75	0,31	0,18
2	4,2	6,94	3,01	1,71	10,3	0,32	0,20
3	4,4	6,48	3,39	1,96	11,95	0,37	0,23
4	4,6	7	3,4	2,39	12,55	0,45	0,29
5	4,8	6,86	3,42	2,63	13,2	0,51	0,32
6	5	5,71	2,56	1,98	11,74	0,37	0,22
7	5,2	5,75	2,24	1,57	12,43	0,29	0,18
8	A tip uchun 3,9-5,2 %	2,5	1,0 dan kam emas	-	13 dan kam emas	0,26 dan kam emas	-

